

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2024



No 2

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 598 sahifa.

E'lon qilishga 2024-yil 29-fevralda ruxsat etildi.

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Musyeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.



MUNDARIJA

Ilm-fanga baxshida umr Baxtiyor Islamov	8
Kichik biznesni rivojlantirishda “yashil” iqtisodiyotni keng tatbiq qilishning ahamiyati Gulnora Abdurahmonova Kalandarovna, Sanjar Baxodirovich G’oipnazarov	10
Brand Capital as a Determinant of Institutional Prestige and Student Choice in the Higher Education System ... Zufarova Nozima Gulamiddinovna	16
Inson va atrof-muhit dialektikasi: nomutanosiblik ko’rsatkichlari va ekologik muammolar Butaboyev Maxammadjon Tuychiyevich, Maxmudov Nosir Maxmudovich	24
Yashil budjetlashtirish va uni O’zbekistonda joriy etish istiqbollari Meyliev Obid Raxmatullayevich, Gofurova Kamola Xayrulla qizi	30
Iqtisodiyotda ta’lim va fan integratsiyasining asosiy yo’nalishlari Yormatov Ilmidin Toshmatovich	35
Transport vositalari va yo’llar turizm transport infratuzilmasini rivojlantirishning muhim omilidir Agzamov Shaxboz Akmalovich	39
Bank xizmatlarini raqamlashtirish orqali samaradorligini oshirish A. X. Salamov	44
Biznes-reja baliqchilik xo’jaligi rivojlanishi uchun asos sifatida Dosmurotova Shaxista Kengashovna	48
Mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va uning lizing munosabatlari rivojlanishi bilan bog’liqligi Axmediyeva Aliya Toxtarovna	55
Turizmni rivojlantirish imkoniyatlari Ziyadullayev Ilhom Narkabilovich	63
Tijorat banklari depozit operatsiyalari samaradorligini oshirish muammolari va ularni bartaraf etish yo’llari Shamsiyev Nodir Muratovich	67
Hududlarni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning samaradorligini oshirish masalalari Shagazatov Oybek bahodirovich	72
Hududlar biznes muhitini rivojlantirish va samarali boshqarish yo’nalishlari Davlatov Sanjar Abdimannonovich	76
Ijtimoiy rivojlanish xulq-atvor paradigmasida yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning nazariy asoslari Mirzatov Baxtiyor Toxirovich	80
Korxonalar innovatsion faoliyatida raqamli transformsiyaning muhim yo’nalishlari Yuldasheva Kamola Miraliyevna	84
O’zbekistonda agroturizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish (Buxoro viloyati misolida) Yoriyeva Farangiz Murodillayevna	89
Innovatsion tadbirkorlik muhitini kompleks baholashda xalqaro tashkilotlar tajribasi Nazarova Umida Avazovna	94
Turizm faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish samaradorligini oshirishning ayrim usullari Mirzaxodjayev Alisher Botirovich	98
Globallashtirish sharoitida transchegaraviy suv resurslardan samarali foydalanishni boshqirish Mirzayev Musurmon Umidullayevich	103
Surxondaro viloyati iqtisodiyotida kichik biznes va tadbirkorlikning o’rni va ahamiyati Fayziyeva Aziza Azamat qizi	108
Ta’lim muassasalarida xarajatlarni moliyaviy nazorat etishning samaradorligi tahlili Eshonqulov Davlatjon Rajabboyevich	113
Ta’minot zanjirini boshqarishda transport logistikasi usullarini takomillashtirish Zoxidova Nazokat Berdimurot qizi	119
Blokcheyn texnologiyasida xavfsizlik masalalari Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich	123
Развитие цифровой трансформации банковского сектора Республики Узбекистан Абдурахманова Матлуба Махамадаминовна	129



Asosiy fondlarni hisoblash va baholash usullarini takomillashtirish istiqbollari.....	135
Rixsimbayev Odiljon Qobiljonovich	
Marketingda tovar harakati tizimini optimallashtirish va modellashtirish	141
Sherzod Xolmurodovich Pardayev, Kamola Abdujabborovna Pardayeva	
Iqtisodiy rivojlanish uchun strategik taqsimlash strategiyalari:	
Investitsion Fond Portfellarning qiyosiy tahlili.....	148
Sultonboeva Munira bahodirovna	
Soliq munosabatlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati: ilmiy-nazariy qarashlar.....	154
Axrorov Zarif Oripovich, Saidmurodov Feruz Sodiqjon o'g'li	
Взаимосвязь инвестиционной стратегии с оценкой эффективности инвестиционного проекта	159
С. С. Алиева, А. Назаров	
Erkin iqtisodiy zonalarning faoliyati va boshqaruv mexanizmini takomillashtirish.....	167
Sheraliyeva Saida Azatovna	
Xizmat safari xarajatlari hisobining huquqiy asoslari	170
Ergashev Sarvar Xudoynazarovich	
Инклюзивное образование и его особенности.....	175
Зайнутдинова Умида Джалоловна	
Jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlarini hisoblash va undirish samaradorligini oshirish yo'llari.....	179
Qurbonov Muxiddin Abdullayevich	
Mamlakatda soliq qarzdorligi vujudga kelishining asosiy sabablari va ularni qisqartirish yo'llari.....	184
Hakimov Ulug'bek Furqat o'g'li	
Mulk qiymatini baholash tushunchasi, baholash obyektlari, baholanadigan qiymat turlari.....	188
Izbosarov Boburjon Bahriddinovich, Yoqubboyev Ilhomjon G'ulomjon o'g'li	
O'zbekistonda sug'urta xizmatlarining zamonaviy transformatsiyasi.....	193
G. Adilova	
Biznes subyektlarida samaradorlik masalalarini o'yinlar nazariyasi usuli bilan baholash.....	197
Mardiyev Nurali	
Yengil sanoatda "lean production" konsepsiyasini tatbiq etishning amaliy jihatlar.....	203
Yaxyayeva Inobat Karimovna	
Soliq salohiyatini baholash usullari va ularning tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ta'siri tahlili	207
Borotov Sharofiddin Jumaqul o'g'li	
Ko'chmas mulk bozorini baholashning institutsional asoslari	213
Ishonqulov Nizamjon Fayzullayevich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm xizmatlarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari.....	221
Amriyeva Shaxzoda Shuxratovna	
O'zbekistonning bank-moliya tizimi hamda unda Islom moliyasi	
instrumentlarini jalb etishdagi joriy tendensiyalar	226
Eshimov Alisher Dasmurodovich	
Tashqi savdoda notarif usullarni qo'llashning iqtisodiy oqibatlarini aniqlash	
metodologiyasi (rivojlangan davlatlar tajribasi).....	234
Norqobilov Akobir Iso o'g'li	
Reklama xizmatlari va uning subyektlar samaradorligini oshirishdagi imkoniyatlari.....	240
Rabbimov Elbek Abdulloyevich	
Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirish asoslari	245
Imonqulov Nuriddin Qo'shmon o'g'li	
Tijorat banklari biznes ekotizimini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	250
Shoymardonov Orziqul Jo'ra o'g'li	
Majburiy tibbiy sug'urtaning vujudga kelishi va o'ziga xos xususiyatlari.....	256
Kenjayev Soxib Sayfiyevich	
O'zbekiston Respublikasida zamonaviy soliq ma'murchiligini joriy etish orqali budjet-soliq siyosati	
samaradorligini yanada oshirish.....	260
Yuldasheva Shaxnoza Xojiakbar qizi	
Jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida derivativlar bozorining roli	266
Shokirov Mirkamol Mirolim o'g'li	
Boshqaruv hisobida mas'uliyat markazlarini tashkil etish masalalari.....	274
Sobirov Otabek Olimjonovich	



Davlat moliyasini boshqarishda moliyaviy nazorat usullaridan samarali foydalanish yo'llari	277
Kultayev Farxod Shavkatovich	
Tijorat banklari foydasi va rentabillik ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi omillar tahlilini takomillashtirish	281
Normo'minov Temurbek Sheraliyevich	
O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari aktivlar sifatini oshirish yo'llari	284
To'ychiyev Otabek Shamshiyevich	
Venchur kapitalining mohiyati va O'zbekistonda venchur tizimini rivojlantirishning institutsional asoslari.....	288
Tadjibayeva Nigora Gulomjonovna	
Innovatsiyalar: zamonaviy iqtisodiyot uchun innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash zarurati.....	293
Malikova Dilrabo Muminovna, Tursunov Jahongir Ulug'bek o'g'li	
Budjet daromadlarining shakllanishida egri soliqlarning ta'sirini ko'p omilli ekonometrik modellashtrishda tahlil qilish.....	297
Abdunazarova Shahnoza Norqo'chqor qizi	
Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion jozibadorlikni oshirish yo'llari	302
Abdullayev Boburjon Akbaraliyevich	
Barcha tadbirkorlik subyektlariga teng raqobat sharoitini yaratishda soliq imtiyozlarining o'rni	306
Akbarov Akmalxon Akrom o'g'li	
Hisob siyosati va unda biologik aktivlar hisobini yoritib berish tartibini takomillashtirish	310
Mirzayeva Nargiza Batirovna	
Talabalarning oilali bo'lishiga ta'sir etuvchi omillarga iqtisodiy baholashda yangicha yondashuv.....	314
O. U. Shomurodov, A. A. Suyarov, Z. U. Uroqov, J. S. Urazov, A. T. Ablahatov	
Ways to Use the Experience of Foreign Countries in Creating a Beneficial Business Environment for Entrepreneurship And Improving Taxation	319
Mukhlisa Ikramova	
Aholi turmush darajasini oshirishda moliyaviy savodxonlikning o'rni va iqtisodiy rivojlanishga ta'siri	325
Yusupov Muhammadali Soxib o'g'li, J.D. Xojiyev	
Temir yo'l sanoat korxonalarida ijtimoiy-mehnat munosabatlarini boshqarish bo'yicha xorijiy tajriba.....	329
Kadirova Sharofat Amonovna	
Механизм внедрения аутсорсинговой деятельности в АО “Ўзтемирйўлийўловчи”	332
Н. Э. Кахорова	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish investitsiyalarni jalb qilishda xorijiy mamlakatlar tajribasi	337
Sharipov Bobur Anvar o'g'li	
“STEKLOPLASTIK” MJCHning bozordagi strategik holatini tahlil qilish	342
Musyeva Shoira Azimovna	
Agrar sektorda ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarishning nazariy masalalari	348
M. Sh. Nazarova, Z. S. Kazakova	
Methodological Foundations of Bank Lending and Classification of Factors Affecting the Features of Obtaining Loans.....	353
Raxmanova Laylo bahodirovna, A. Karimova	
Agrosanoat klasterlarda tovar-moddiy zaxiralar samaradorligini KPI orqali baholash uslubiyati.....	357
Toshpo'latov Azizbek Shermuxamadovich	
Faol tadbirkorlar faoliyatida kambag'al oilalarni iqtisodiy-ijtimoiy holatini yaxshilash imkoniyatlari.....	362
Salamov Ibrohim, Nazarova Maryam Sharifovna, Kazakova Zulayxo Saloxiddinovna, Jonibekov Faxriddin Beknazarovich, Kudratov Rizo Turdibayevich, Ulmasova Oygul Baxtiyorovna, Xamdamova Nasiba Ablakulovna, Xudayberdiyeva Ma'rifat Umarovna	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar strategiyasi tahlilining o'ziga xos xususiyatlari	369
Tursunova Shaxnoza Farxod qizi	
Процессы цифровизации АО “Hududgazta'minot”	373
Хусанов Кахрамон Нишонович	
O'zbekistonda aholi turmush darajasini oshirish yo'llari.....	378
Abdullayeva Madina Kamilovna, Eldorbekov G'ofurbek Iskandarbek o'g'li	
Aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik subyektlari uchun kredit tizimini takomillashtirish mexanizmi.....	381
Bobayev Isroiljon Abdinabiyeich	
Mamlakatga jalb qilingan xorijiy kapitalning tovarlar va xizmatlar importi salohiyatiga ta'sirini ekonometrik modellar bilan baholash.....	386
Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li	



O'zbekistonda bank xizmatlari raqobatbardoshligini baholash mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari.....	394
Sh. Madraimov	
Kapital bozorida sug'urta kompaniyalar institutsional investor sifatida	397
Xasanova Lola Mamasharifovna	
Yangi O'zbekiston strategiyasida institutsional islohotlarni yanada chuqurlashtirish va ko'p funksiyali raqamlashtirishning ilmiy asoslari	400
B. B. Berkinov	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari orqali jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirish mexanizmlari.....	409
G'afurov Umidjon Bahodir o'g'li	
Rivojlangan mamlakatlarda keksa fuqarolarning bandligini oshirish kam ta'minlangan aholi qatlamini qo'llab-quvvatlash usuli sifatida (Yaponiya tajribasi misolida).....	413
Karimov Bekzodjon Ilxomovich	
Tashqi savdoni oshirishda boj-tarif siyosatini takomillashtirish mexanizmlari	420
Pardayev Ilhomjon G'ulomjon o'g'li	
Финансы или корпоративные финансы	426
Уринов Бобур Насиллоевич	
In Ensuring Economic Development in the Country Green Economy and its Features	432
Akhunova Shakhistakhon Nomonjanovna, Abdusattorova Mokhirabonu Abdugoppor kizi	
Tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari	437
Jo'rayev O'ktam Panji o'g'li	
Сокращение уровня бедности в Узбекистане.....	443
Амирджанова Ситора Суннат кизи	
Paxtachilik sohasida ishlab chiqarish jarayonlari samaradorligini oshirishning innovatsion yechimlari va uning foydaga ta'sirini baholash	448
S. B. Inoyatov	
Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishlash amaliyotidagi muammolar va ularni barataraf etish yo'llari	453
Maxmudov Rahimjon Hamid o'g'li	
Mahalliy budjet daromadlarining nazariy va ilmiy asoslari	460
O'lokulova Feruza Mansurovna	
Kambag'allikni qisqartirish – aholi turmush farovonligini ta'minlashning muhim omili	463
Usmanov Baxodir Baxtiyorovich	
Raqamli marketingni rivojlantirish zaruriyati	469
Xalmuxamedova Zebaxon Babaxanovna	
Tijorat banklari o'rtasidagi raqobatni rivojlantirish orqali fond bozorida aksiyalar narxini barqarorligini ta'minlash istiqbollari	473
M. Yuldosheva	
Konchilik sanoati korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish mexanizmlarining ilmiy-nazariy asoslari	480
Kurbanova Mehriniso Nematjanovna	
O'zbekistonda banklar moliyaviy xizmatlari va ular sifatining amaldagi holati tahlili	487
Mirzayev Mirza Abdullayevich	
Oliy ta'lim muassasalarining iqtisodiy samaradorlikning raqobatbardoshligini instituttsional tahlil qilish mexanizmi.....	492
Saydullayeva Saodat Abdumajidovna	
Integrasiya sharoitida to'qimachilik sanoatining rivojlanishi	499
Ziyayeva Muhtasar Mansurdjanovna	
Auditorlik tekshiruvini tashkil etish va o'tkazish jarayonlarini takomillashtirish	503
Karamatova Noiba Husnitdinovna	
Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning nazariy jihatlarini	510
Mamatov Mamajan Axmadjonovich	
Экономическое сознание и экономическое мышление: теоретический анализ.....	517
Пардаев Мамаюнус Каршибаевич, Мухаммедов Мурод Мухаммедович	
O'zbekiston respublikasi tijorat banklari tomonidan qurilish korxonalarini kreditlashni takomillashtirish yo'llari	522
Sultanov Baxram Begdullayevich	



Роль искусственного интеллекта в современных технологиях медиаобразования в высших учебных заведениях.....	526
Самигова Гуландом Абдужаббаровна	
Talabalarga moliyaviy yordam dasturlari va ularning ta'lim sifatiga ta'siri	534
Mirzayeva Muhlisa Ubaydullo qizi	
Mintaqaviy investitsion jozibadorlik va investitsion siyosat: nazariy talqin	539
Muminov Akmal Tulkunovich	
Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida oliy ta'lim tizimining ta'siri	543
Nasimov Adiz Azamat o'g'li, Baxtiyorova Jasmina Jasurovna, Axrorov Zarif Oripovich	
Respublikada fermer xo'jaliklarga xizmat ko'rsatishni rivojlantirish va agroxizmatlar bozorini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari	548
Shukurov Ilxom Safarboyevich	
Turli mamlakatlarda oliy ta'limni moliyalashtirish yo'llari	555
Umarova Moxigul Maxmayunus qizi	
Dehqonchilikni innovatsion asosda rivojlantirishning xorijiy tajribasi	560
Yuldashev G'iyos Turabekovich	
Tijorat bank xizmat turlarini islomiy bank xizmatlari orqali rivojlantirish istiqbollari	564
Bayjanova Gozzal Sarsengaliyevna	
Qishloq xo'jaligi mahsulotini baholash va hisobga olishning uslubiy jihatlarini takomillashtirish	570
Boltayev Abror Sayitmuradovich	
Секреты интересного урока в начальной школе	577
Гараева Олеся Владимировна	
Iqtisodiyotni barqaror rivojlanishda yashil iqtisodiyotning o'rni	580
Ibragimova Gulchehra Toxirovna	
Mahsulot va xizmatlarni raqamli transformatsiyasini amalga oshirish algoritmi	584
Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, Bobojonov Azizjon Babaxanovich, Abdurakhmonov Abdumalik Abdurashidovich	
O'zbekiston Respublikasining soliq tizimi mamlakatda yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish vositasi sifatida	591
Nabiyev Feruz Nurmurodovich	



KONCHILIK SANOATI KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINING ILMIY- NAZARIY ASOSLARI

Kurbanova Mehriniso Nematjanovna

Toshkent davlat transport universiteti doktranti

Annotatsiya: Jahonning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy infratuzilmasida konchilik sanoati korxonalarining faoliyatini innovatsion faoliyatni rivojlanishiga salmoqli ta'sir ko'rsatishi raqobatbardoshlikni ta'minlashda doimiy strategik chora-tadbirlarini mustahkamlashda ahamiyati yuqori sanaladi.

Kalit so'zlar: Innovatsion rivojlanish, sanoat korxonasi, jahon bo'yicha raqobat, iqtisodiy rivojlanish.

Abstract: The impact of the development and modernization of industrial enterprises on innovative activities in the economic infrastructure of developed and developing countries is manifested as a significant factor in ensuring competitiveness. In this context, continuous strategic measures and initiatives play an important role in ensuring stability and competitiveness in the industry, facilitating the transition to innovative activities.

Key words: Innovative Development, Industrial Companies, Global Competition, Economic Development.

Аннотация: Влияние развития и модернизации промышленных предприятий на инновационную деятельность в экономической инфраструктуре развитых и развивающихся стран проявляется как существенный фактор обеспечения конкурентоспособности. В этом контексте постоянные стратегические меры и мероприятия играют важную роль в обеспечении устойчивости и конкурентоспособности в промышленности, способствуя переходу к инновационной деятельности.

Ключевые слова: инновационное развитие, промышленные компании, глобальная конкуренция, экономическое развитие.

KIRISH

Jahon mamlakatlari orasida iqtisodiy globallashuv chuqur ildiz otayotgan sharoitda konchilik sanoati korxonalari tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulotlarga bo'lgan talab kun sayin oshib bormoqda. 2021-yilda mineral xom ashyolarni ishlab chiqarish qit'alar bo'yicha ulushi birinchi o'rinda 60,4 foiz miqdorida Osiyo mamlakatlari egallagan bo'lsa, ushbu mamlakatlar orasida O'zbekiston 2 o'rinda turadi. O'zbekiston o'sib borayotgan elektrifikatsion faoliyat talabini qondira olish qobiliyatiga ega konchilik sanoati korxonalariga ega bo'lib, jahon miqyosida tanilgan mahsulotlarining sifati yuzasidan investitsion jozibadorligi yuqori sanaladi. Xususan, 2022-yilda ferroquyma temir sotish bo'yicha O'zbekiston 1307 m.t. bilan 40-o'rinni egallagan bo'lsa, rangli metall 221569 m.t, qimmatbaho metallarda bu 312 m.t.ni tashkil etadi. Mamlakatimizda mavjud yirik konchilik sanoati korxonalarining iqtisodiy imkoniyatlarining yuqoriligi tufayli asosiy yetakchi investitsion flagmanlaridan biri sanalgan "Navoiy KMK" AJning innovatsion faoliyatini rivojlantirish barqaror o'sishga ega bo'lsa-da, uning joriy boshqaruvi hamda kelgusida taraqqiy ettirishda mexanizmi faollashtirilmagan. Shunga ko'ra, mazkur tadqiqot ishida "Navoiy KMK" AJning innovatsion faoliyatini yanada rivojlantirishning mexanizmlarini takomillashtirishga zarurati oshadi hamda korxonaning strategik obyektligini inobatga olgan holda dolzarbligini asoslaydi.



Jahonning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarining iqtisodiy infratuzilmasida konchilik sanoati korxonalarining faoliyatini innovatsion faoliyatni rivojlanishiga salmoqli ta'sir ko'rsatishi raqobatbardoshlikni ta'minlashda doimiy strategik chora-tadbirlarini mustahkamlashda ahamiyati yuqori sanaladi. Dunyo bo'ylab mazkur sohada band bo'lgan ishchilarning soni Osiyo mamlakatlari orasida 520 milliondan ortiq odamni qamrab olib, bu dunyoning 1,2 foiz ulushiga to'g'ri keladi. Innovatsiya bozorida innovatsion ishlanmalarning 8,1 foizi konchilik ishlari faoliyatiga qaratilgan texnologiyalarni tashkil etishi mazkur sohada innovatsiya, inson kapitali, ekologik xavfsizlik singari muhim jihatlarni rivojlanishidagi maqsad va vizifalarni bajarishni tavsiyalaydi. Shu nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqot ishida nazarda tutilgan innovatsion faoliyatni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish mavzuning dolzarbligini oshiradi hamda uning tarkibida ko'zlangan ilmiy tadqiqot ishlarining bajarilishida ilmiy, amaliy zaruratni asoslaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Jahon tajribasida konchilik sanoati korxonalarini innovatsion faoliyatini rivojlantirish va mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan M.N.Vyatkin, S.V.Vyatkin, C.Yi, B.P.Townson, R.D.Plessis, N. Nilsson, S. Daniel, F. Zhenyu, S.Houston, M.Burdett singari olimlarning tadqiqot ishlarida ko'rish mumkin.

O'zbekistonda konchilik sanoati korxonalarini iqtisodiy rivojlantirish, moliyaviy sog'lomlashtirish, investitsion qobiliyatini oshirish yuzasidan N.X.Sag'otov, V.S. Nikitin, S.N.Xashimova, O.O. Qosimov, N.B.Abdusalomova, D.Urmanova, Yakubov N.M. singari o'zbek olimlari o'z tadqiqot ishlarida ko'rib chiqqanlar.

Yuqorida keltirilgan olimlarning tadqiqot ishlari ilmiy-amaliy, uslubiy-loyihaviy manba bo'lib xizmat qilsa-da, ularda mamlakatimizda konchilik sanoatining innovatsion faoliyatini rivojlantirish yuzasidan iqtisodiy samaradorlikni oshirish, innovatsion salohiyatni o'stirishning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini baholashning iqtisodiy va moliyaviy masalalari yoritilmagan.

Mahalliy olimlarning tadqiqot ishlarida "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksionerlik jamiyati misolida izlanishlar olib borilishiga qaramasdan konchilik sanoati korxonalarining innovatsion mexanizmlarini hamda innovatsion faoliyatning iqtisodiy va texnologik samaradorligini texnik-iqtisodiy baholanishi yuzasidan tadqiqotlar olib borilmaganligi va izlanishlarning noyobligi uning dolzarbligini asoslaydi.

Tahlil va natijalar. So'nggi yillarda O'zbekistonda rangli va qimmatbaho metallarni qazib olish hamda qayta ishlash, shuningdek, ulardan yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlarni ishlab chiqarishga qaratilgan. Mazkur soha mamlakatning strategik va iqtisodiy infratuzilmaning yetakchi ahamiyati sanaladi.


Konchilik sanoatida innovatsion faoliyatni olib borish innovatsion menejmentning fan sifatida ajralib chiqishidan oldinroq boshlangan bo'lib, unda avtomatlashtirilgan qurilmalar, texnologik dastgohlar kombinat barpo etilganida ta'minlangan va muntazam yangilanib turilgan. Ilmiy va amaliy yondashuv asosida "Navoiy KMK" AJda ishlab chiqarish faoliyatini olib borish doimo o'zining ijobiy natijalarini namoyon etgan.

Mamlakatimizda foydali qazilma boyliklarning hamda rangli metallarning zaxirasi bo'yicha yetakchi o'ringa ega bo'lib, oltinning tasdiqlangan zaxirasi 6,4 ming tonna, kumush 24,6 ming tonna, mis 21,3 mln. tonna, ruh 14,8 mln. tonnani tashkil etadi.¹ Mazkur ko'rsatkichlar investitsiya bozorida alohida jozibadorlikka ega bo'lib, o'ziga jalb etadi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish yuzasidan davlat dasturlari doirasida olib borilayotgan chora-tadbirlar o'zining salmoqli natijaviyligini hamda samarasini bermoqda. 2021 yilda mamlakatdagi tog'-kon to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni umumiy hajmi 1,2 mlrd. AQSh dollarni, 2022-yilda bu ko'rsatkich 0,9 mlrd. AQSh dollar ko'proq pul mablag'ini tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda 1,5 mlrd. AQSh dollar mablag' jalb etilgan. Shundan Navoiy kon-metallurgiya kombinatining ulushi 2021 yilda 29,4%, 2022-yilda 28,9 hamda 2023-yilda 28,5 foiz ulushiga to'g'ri keladi.² Bu Navoiy kon-metallurgiya kombinatining investitsion jozibadorligini kamayganligini emas, uning o'zini reinvestitsiya qilish faoliyatining yil sayin o'sib borayotganligi bilan tavsiflanadi. Xususan, 2021 yilda Navoiy kon-metallurgiya kombinatiga qilingan investitsiyaning 19%, 2022-yilda 22% pul mablag'i reinvestitsiya qilingan ulushini tashkil etadi. Mamlakat budjeti daromadining 18% Navoiy kon-metallurgiya kombinatining egallagan hissasidan iborat bo'lib, uning asosiy moliyaviy mustaqil flagmanga aylantirdi. Aholi darmomadini oshirishdagi ulushida Navoiy kon-metallurgiya kombinatining 57 mingdan ortiq ishchi va xodimlarni band etgan ulushi 6,14 % ga to'g'ri keladi.

Navoiy kon-metallurgiya kombinatining ishlab chiqarish jarayonlarini ilg'or texnologik ta'minlash hamda innovatsion ishlanma va vositalarni tatbiq etish maqsadida investitsion loyihalar doirasidagi taqsimoti ish jarayonlarining infratuzilmaviy mutanosiblikni ta'minlash jihatdan yo'naltirilgan. Navoiy kon-metallurgiya kombinatining asosiy barqarorlikni ta'minlash qadriyatlari o'zi ichiga asosan ijtimoiy, iqtisodiy va ilmiy maqsad va vazifalarni oladi(1-rasm).

1 Fahriddinxo'jayev Sh. Rangli metallurgianing rivojlanish istiqbollari. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi "Iqtisodiy sharh" jurnali №1/2022

2 Fahriddinxo'jayev Sh. Rangli metallurgianing rivojlanish istiqbollari. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi "Iqtisodiy sharh" jurnali №1/2022



1-rasm: "Navoiy KMK" AJning barqarorlikni ta'minlash qadriyatlarini tarkibi³.

Yuqorida keltirilgan rasmda ishlab chiqarishda ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qadriyatlarni tizimlashtirishda ilm va fan taraqqiyotining ham inobatga olinganligi inson omili, inson kapitali hamda xodimlarning innovatsion salohiyatini oshirishga xizmat qilishini tavsiflaydi.

Navoiy kon-metallurgiya kombinati Birlashgan Millatlar Tashkilotining asosiy maqsad va vazifalari doirasida olib borayotgan innovatsion faoliyati mamlakatimizdagi sanoati korxonalari uchun namuna bo'la oladi. (1-jadval)

1-jadval: "Navoiy KMK"ning BMTning bosh maqsadlari doirasida amalga oshirgan chora-tadbirlari (2018-2022-yy)⁴

№	MTning bosh maqsadlari	Bajarilgan ishlar		
		Tadbirlar	Birlik	Qiymati
1	Toza ichimlik suvi va sanitariyasi	Gelio'rnatmalar asosida issiq suv ta'minoti	mln. so'm	114,42
		Shaxta suvlarini tozalashning texnologik xaritasini ishlab chiqish va tatbiq etish	mln. so'm	582,66
		Oqava suvlarni tozalash va filtrlash jarayonini takomillashtirish	mln. so'm	881,37
2	Munosib ish bilan bandlik va iqtisodiy o'sish	"Navoiy KMK" AJ xodimlari o'rtasida ratsionalizatorlik faoliyatini rag'batlantirish	mln. so'm	1 764,3
		Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarish	mln. so'm	20 599,4
		Profillarni kengaytirish va yangi ish o'rinlarini yaratish	Ish o'rni	3 222
3	Sanoatlashtirish, innovatsiya va infratuzilmani takomillashtirish	Ilm-fan yutuqlari va ilmiy tadqiqot ishlari doirasidagi loyihalar	Loyiha	246
			mlrd. AQSh dol.	1,9
		Xorijiy mamlakatlar bilan tajriba almashinuv doirasida ilmiy izlanishlar olib borish	Mamlakat	Rossiya, AQSh, Braziliya, Xitoy, Eron, Germaniya, Finlandiya, Koreya

³ Navoiy KMK ma'lumotlari.

⁴ Navoiy KMK AJning "Barqaror o'sish" hisoboti, 2022-y. https://www.ngmk.uz/uploads/photo/about-ngmk/infos/report_rus.pdf



4	Rivojlangan shaharlar va aholi punktlari	GMZ 3 da eritish jarayoniga ekologik toza ishlov berish hamda atmosferaga chiqindi gazlarni chiqarishni oldini olish texnologiyasi	mlrd. so'm	4,07
5	Aholi salomatligini ta'minlash va sog'lom turmush tarzi	Sanoat xavfsizligini ta'minlovchi avtomatlashtirilgan va raqamli texnologiyalarni tatbiq etish	mlrd. so'm	12,44

Navoiy kon-metallurgiya kombinatining BMTning bosh maqsadlari doirasida amalga oshirgan ishlarning pirovardida innovatsion faoliyatni takomillashtirish mavjud bo'lib, bajarilgan barcha ishlar zamonaviy va ilg'or texnologik vositalar, dastgohlar va uskunalarni korxona faoliyatiga tatbiq etilganligi bilan tavsiflanadi.



2-rasm: "Navoiy KMK" AJning ixtirolarni tatbiq etishning iqtisodiy samaradorligi (2011-2022-yy)⁵

2011-yilda "Navoiy KMK" AJ Navoiy erkin iqtisodiy hududi doirasida ko'plab investorlar, hamkorlar, homiyarlar hamda kreditorlar bilan mustahkam aloqalar o'rnatib, investitsion, ilmiy, malakaviy, intellektual texnologik hamda ekologik loyihalarni tatbiq etdi. Mazkur loyihalar 2011-yilda 3 tani tashkil etgan bo'lishiga qaramasdan iqtisodiy samaradorligi 0,54 foiz natijaviylikni bergan. 2012-yilda loyihalarning ya'ni ixtirolarni amaliyotga joriy etishning iqtisodiy samaradorligi 2011-yilga nisbatan 2 barobar o'sishi korxonaning yana 3 ta loyihaning natijasi sanaladi.

2013-yilda "Navoiy KMK" AJning yangi konlarni topilishida 4 ta ixtirodan samarali foydalanish asosida 2,13 foiz iqtisodiy salmoqni taqdim etdi. Bu 2012-yilga nisbatan salkam 2 barobarga tengdir. 2014-yilda 58 foiz ko'proq iqtisodiy samaradorlik asosida 3,67 foizni tashkil etishida Qizilqum fosforit majmuasining ochilishi hamda unda resurslar tejamkorligiga doir ixtirolarning tadbiq'i mahsuli sanaladi.

2015-yilda ixtirolarning amaliy tadbiq'i 2014-yilga nisbatan 50 foizga oshgan holda 9 ta loyihani hamda 2 foiz ko'proq iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichini tashkil etgan. №5 kon boshqarmasining "Surgali" hamda "shimoliy Konimeks" konlarida ishlab chiqarish va maishiy inshootlarning foydalanishga topshirilishida innovatsion ishlanmalarning ham hissasi mavjud.

2016-yilda innovatsion loyihalarning soni 10 taga yetib, iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichi 5,62 foizni o'suvchi harakaterga ega holda taqdim etgan. Bunda nazarda tutilgan ixtirolar va innovatsion loyihalar 2016-yilda "muruntov" konida minerallashtirilgan massaning burmalanishlarini uyumlash asosida eritish jarayoniga yo'naltirish usuli orqali qayta ishlash, zavodning alohida toifalangan obyektlarini zaxiraviy energetik ta'minoti zamonaviylashtirilganligini qamrab oladi. Shuningdek, "shimoliy Konimeks" konida sorbsion uskunalarining barpo etilishi xizmat qildi.

2017-yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Butunjahon intellektual mulk" agentligi tomonidan Navoiy kon-metallurgiya kombinatining 12 nafat ixtirochi va olimlarni murakkab oltin rudalardan oltinni ajratib olishga qaratilgan texnologiyani ixtiro etishdagi ishtiroki tufayli "Eng yaxshi ixtirochi" oltin medali bilan taqdirlangan bo'lib, iqtisodiy samaradorlik 7,81 foizni tashkil etganligi bilan izohlanadi. 2018-yildan buyon "Navoiy KMK"

⁵ "Navoiy KMK" AJ ma'lumotlari va yillik hisobotlari



AJning innovatsion faoliyatining ilm-fan yutuqlaridan foydalanish va ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish doirasida 40 dan ortiq loyihalar amalga oshirildi. 2018-yilda jami joriy etilgan loyihalar soni 15tadan iborat bo'lib, iqtisodiy samaradorligi darajasi 9,89 foizni tashkil etgan.

2019-yilda "Navoiy KMK" AJda №5 kon boshqarmasining 4 geotexnologik konida noyob va foydali qazilma boyliklarni ishlab chiqarish maqsadida 16ta loyiha tatbiq etilgan bo'lib, uning iqtisodiy samaradorligi 13,2 foizni tashkil etdi. 2020-yilga kelib mazkur ko'rsatkich 2019-yilga nisbatan 2 foiz ko'proq bo'lib, amaliyotgan tatbiq etilgan ilmiy loyihalar soni o'zgarmagan. Shunga qaramasdan turib, korxonaning iqtisodiy samaradorligi 11,4 foizni egallagan holda o'suvchi dinamikani tashkil etdi.

2021-yilda kombinatda №2 gidrometallurgiya zavodining qayta ishlash quvvatlarini yanada kengaytirishga yo'naltirishgan bo'lib, GMZning tegishli tegirmon bloklari ishga tushirilganligi bilan izohlanadi. 2022-yilda ixtirolarning 21 ta loyiha doirasida korxonada raqamlashtirishga qaratilgan loyihalarni amaliy tadbiq natijaviyligi 13,2 foizni tashkil etdi. 2022-yilda "Texnologik va ishlaniishi murakkab bo'lgan oltin tarkibli ma'danlarni qayta ishlash va o'zlashtirishning kompleks texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish" yuzasidan qilingan innovatsion ishlarni, Tomdi shaxtasiga temir yo'l foydalanilishini boshlanishi hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan 19 ta loyiha qamrovida innovatsion ishlarni amaliy tadbiq natijasida 21 foiz iqtisodiy samaradorlikka erishildi. Umumiy yillar kesimida innovatsion faoliyat doirasida amalga oshirilgan ishlarning barchasi o'suvchi xarakter kasb etadi va barqaror o'sish xususiyatiga ega.

So'nggi yillarda mamlakat iqtisodiyotini raqamli texnologiyalar asosida taraqqiy ettirish sharoitida ekologik xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi texnologik vositalar chora-tadbirlar hamda innovatsion ishlarni amaliy aksariyat qismini tashkil etmoqda. Bu innovatsion faoliyatni olib borishda qo'yilayotgan talablardan biri bo'lib, innovatsiya bozorida buyurtmachilar yoki xaridorlarni qiziqtiradigan jihatlardan biriga aylanib ulgurdi. 2023-yilda chiqindilarsiz ishlab chiqarish hamda "Yashil iqtisodiyot" tizimi asosida ishlab chiqarishni ta'minlash maqsadida innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarish o'z ichiga 15 ta loyihani qamrab olib, uning moliyatashtirish manbasi "Navoiy KMK" AJ innovatsion rivojlanishni qo'llab-quvvatlash Jamg'armasi sanaladi. (2-jadval)

2-jadval: 2023-yil davomida "Navoiy KMK" AJda ishga tushirilgan innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarish loyihasi⁶


№	Loyiha nomi	Moliyalashtirish hajmi (mlrd.so'm)	Natija
1	Raqamli texnologiyalar asosida №5 va 7 shidrometallurgiya zavodlarida intellektual boshqaruv tizimlarini joriy etish	5,0	Raqamli texnologiyalar asosida intellektual boshqaruv tizimlarining joriy etilishi amalga oshirildi
2	"Aktav" koni yonuvchi slaneslari tarkibidagi oltinning nanozarrachalarining mavjud shakllarini tadqiq etish ishlari	3,218	Yonuvchi slaneslardan oltinning nanozarrachalarini ajratib olish asosida ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi
3	1 F670 tokarli vint kesuvchi dastgoh modelini ishlab chiqarishni tashkil etish	2,20	Analoglariga nisbatan muqobil dastgoh yaratildi
4	Geologik qidiruvning asosiy materiallarini majmuaviy tahlil qilish hamda 5 GMZ uchun oksidlangan ma'danlarga ajratish	1,9	Oltin konlarining materiallarini tahlil qilish maqsadida GMZ ehtiyojlari uchun oksidlangan ma'danlarning tarqalishi kengayib bordi
5	Atrof-muhitga ta'sirini ekologik va geokimyoviy baholash. Tuproq, suv va o'simliklar holatini baholash indikatorlarini ishlab chiqish	1,9	Indikatorlar asosida tahlil qilish yo'lga qo'yildi
6	6662 rusumli bo'ylama frezerlash dastgohi analogini loyihalash va ishlab chiqish	1,7	Indikatorlar tizimi ajratildi va milli indikativ boshqaruv tuzilmasi ishlab chiqildi
7	Ishlab chiqarishda baxtsiz hodisalarning oldini olish maqsadida videoroliklar ishlab chiqish	0,984	Ko'zlangan maqsadga erishildi
8	Skoring modelini tatbiq etish	0,2	Zamoaviy va ilg'or dasturiy ta'minot amalga oshirildi

"Navoiy KMK" AJning innovatsion faoliyatini amalga oshiruvchi xodimlar soni 14 tani tashkil etib, ularning orasida, asosan, muhandislarning ko'pligi alohida ajralib turadi. Mamlakatimizdagi mavjud innovatsion markazlar, texnoparklar bilan hamkorlikda ish faoliyatini olib borish profillarning kengaytirilishiga talab kun sayin o'sib bormoqda.

⁶ "Navoiy KMK" AJ ma'lumotlari.



“Navoiy KMK” AJda bugungi kunda 30 dan ortiq fan nomzodi hamda 10ga yaqin fan doktori o‘z faoliyatini olib boradi. Bugungi kunga qadar mustaqillik yillaridan buyon “Navoiy KMK” AJda olib borilgan ilmiy tadqiqot va izlanishlar natijasida qilingan ixtirolar, foydali patentlar, ratsionalizatorlik takliflari 9 barobarga oshgan. Buning natijasida “Navoiy KMK” AJning mamlakatimizning mustaqillikka erishgan vaqtdan buyon bugungi kunga qadar tog‘ massasini chiqarish hajmi 5 barobar, rudani qayta ishlash hajmi 3 barobar, mahsulot ishlab chiqarish hajmi 2 barobarga hamda ishchilarni yollashda 2 barobarga ko‘rsatkichlari oshgan. Shu bilan bir qatorda, “Navoiy KMK” AJ tomonidan ishlab chiqariladigan uranning hajmi jahon mamlakatlari orasida yettinchi o‘rinda bo‘lishini ta‘minlagan⁷.



3-rasm: Oltin ishlab chiqaruvchi reytingidagi yetakchi korxonalarning ishlab chiqarish hajmi va o‘sinh sur‘ati (2023-yil)⁸

Kanadaning “Kitko” korxonasi tomonidan o‘tkazilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalarini tahlil qilish asosida 2023-yilning boshida eng yirik oltin ishlab chiqaruvchi korxonalarning o‘nlik reytingida “Navoiy KMK” AJ tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining 5 o‘rinda turishini baholadi. (3-rasm)

2023-yilning yarim yillik hisobiga ko‘ra, O‘zbekistonning oltin-valyuta zaxiralari yil boshidan beri 3,1 mlrd AQShdollar qiymatida kamaydi. Bu holatni tahlil qilganda, asosan, tashqi savdoda defitsitning oshishi, xalqaro pul o‘tkazmalarining sezilarli darajada qisqarishi, shuningdek, milliy valyuta kursining qadrsizlanib borishi tufayli bazaga kelmoqda. O‘zbekistonning joriy rasmiy zaxiralari 32,7 mlrd AQSh dollari tashkil etishi bilan birga uning tarkibida 23,4 mlrd AQSh dollar monetar oltin qiymatidan iboratdir⁹.

3-jadval: O‘zbekistonning Global innovatsion indeksi asosida baholanishi¹⁰

№	Komponentlar	2015-yil		2022-yil	
		Baho	O‘rin	Baho	O‘rin
1.	Institutlar sifati	49,0	106	57,3	63
2.	Inson kapitali va ilmiy-tadqiqotlar faoliyati	27,0	76	30,8	65
3.	Infratuzilma	29,0	101	41,7	74
4.	Bozor rivojlanishi	44,4	85	39,9	60
5.	Biznesni rivojlantirish	20,0	138	25,3	74
6.	Fan va texnologiyalar	27,2	61	17,9	80
7.	Ijodiy mahsulotlar	8,5	138	7,7	102

Mamlakatning innovatsion salohiyatini baholashga xizmat qiluvchi global innovatsiyalar indeksi bo‘yicha O‘zbekiston 2015-yilda 122 -o‘rindan 2022-yilda 82-o‘ringa qadar ko‘tarildi, MDH mamlakatlari orasida 5 o‘rinni qat’iy egallashi natijasida yanada investorlar uchun jozibadorlik kasb etdi. (3-jadval) Institutlarning sifati jihatdan 40 pog‘onaga o‘sgani, inson kapitali va ilmiy tadqiqotlar faoliyatining rivojlanish darajasi jihatdan 11 pog‘onaga, eng asosiy jihatlardan biri infratuzilmaning 30 pog‘onaga oshganligi mamlakatdagi innovatsion salohiyatining darajasida sezilarli darajada ijobiy natijalar mahsulidir. Bozor rivojlanishi hamda biznesni rivojlantirish jihatdan

7 “Navoiy KMK” AJ ma’lumotlari.

8 <https://kun.uz/news/2023/09/12/nkmk-dunyodagi-eng-yirik-oltin-ishlab-chiqaruvchi-kompaniyalar-onligidan-joy-oldi>

9 <https://kun.uz/news/2023/09/12/ozbekistonning-oltin-valyuta-zaxiralari-ketma-ket-beshinchi-oy-kamaydi>

10 <https://mininnovation.uz/oz/info/global-innovatsion-indeks>



indektsion o'zgarish ham keskin o'sdi. Fan va texnologiyalar shuningdek, ijodiy mahsulotlar foiz ko'rsatkichlari yuqoridagi ko'rsatkichlarning zanjirsimon pirovard natijasi sanaladi. Navoiy kon metallurgiya kombinatining innovatsion salohiyat darajasining ulushi 12 foizni tashkil etib O'zbekistonda "Olmaliq KMK" AJdan keyingi o'rinni egallaganligi bilan izohlanadi. Shuningdek, Mamlakatning davlat budjetiga tushumlaridagi ulushi jihatdan "Navoiy KMK" AJning 20,25 foiz hisobida (2022-yil) hamda eng yirik daromad keltiruvchi korxona bo'yicha 10 639,8 mlrd. so'm mablag' qiymatidagi natija bilan birinchi pog'onani egalladi¹¹.

XULOSA

Mamlakatimizdagi innovatsion infratuzilmani takomillashtirish uchun yetakchi flagman korxonalarni innovatsion faoliyatni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish talab etiladi. Buning natijasida iqtisodiyotning muqobillik va mutanosiblik kategoriyalari asosida rivojlanish sodir bo'ladi, yetakchi sanoat tarmoqlari korxonalari innovatsion faoliyat jihatdan oqsayotgan korxonalar parallel rivojlanib innovatsion jihatdan oshib boradi.

Innovatsion faoliyatni rivojlantirish mexanizmlari jihatdan ko'plab ilmiy izlanishlar va tavsiyaviy xarakterga ega takliflar berilayotgan bo'lsa-da, konchilik sanoati korxonalarini innovatsion salohiyati mamlakatda salmoqli o'ringa egaligi tufayli innovatsion faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan mexanizmlarning muqim sxemasi yoki tuzilmasi mavjud emas. Shu nuqtayi nazarni ham inobatga olgan holda innovatsion faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan mexanizmni ishlab chiqish va ishlab chiqarishga tatbiq etish tavsiya etiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Fahriddinxo'jayev Sh. Rangli metallurgiyaning rivojlanish istiqbollari. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi "Iqtisodiy sharh" jurnali. –№1.–2022.
2. Kurbanova M., Atavullaeva F. Peculiarities of digital economy and its development tendencies in the banking system of Uzbekistan //International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering. – 2019. – T. 9. – №. 1. – C. 114-125.
3. Kurbanova M. N. DIE AUSLANDSERFAHRUNG INNOVATIVER ENTWICKLUNG DER WIRTSCHAFT ALS HAUPTWACHSTUMSSCHWERPUNKTE //Актуальные проблемы экономики и управления на предприятиях машиностроения, нефтяной и газовой промышленности в условиях инновационно-ориентированной экономики. – 2015. – T. 1. – C. 225-229.
4. Plessis R.D. The South African mining industry towards 2055: scenarios.Degree: Faculty of Business and Economic Sciences, 2015, Nelson Mandela Metropolitan University URL: <http://hdl.handle.net/10948/4215>.
5. Nelsson N. ow to future proof a Business Model : Capture and capitalize value in the field of Urban Mining.Degree: 2015, , Blekinge Institute of Technology URL: <http://urn.kb.se/resolve?urn=urn:nbn:se:bth-1051>.
6. <https://mininnovation.uz/oz/info/global-innovatsion-indeks>.
7. Bobojonova, Z. S. (2021). Analysis of economic efficiency of oil recovery from fields in Bukhara-Khivinsky region and ways of its implementation. NVEO-NATURAL VOLATILES & ESSENTIAL OILS Journal| NVEO, 10183-10187.
8. Fahriddinxo'jayev Sh. Rangli metallurgiyaning rivojlanish istiqbollari. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi "Iqtisodiy sharh" jurnali. –№1.–2022.

11 Davlat aktivlarini boshqarish agentligining infografik ma'lumotlari.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.